

ABDULLA QODIRIYNING O'TGAN KUNLAR ROMANIDAN  
OLINGAN REALIYALARNING TAHLILI

*Sobirova Shahnoza*

*Tursunova Sevara*

*Hikmatova Gulhayo*

*Bo'riyeva Nasiba*

*Denov Tadbirkorlik va Pedagogika Instituti talabalari*

**Anotatsiya:** Bu maqola o'zbek tilidagi realia so'zlarini aniq va tushunarli tarjima qilishda muhim masalalarni ko'rib chiqadi, shuningdek, realia tarjimasida duch kelinadigan muammolarni, jumladan, madaniy kontekstni tushunishning muhimligini, turli tarjima usullarini tanlashni va realia so'zlarining idiomatic ma'nosini saqlashni muhokama qiladi.

O'zbek realia so'zlari o'ziga xos madaniy kontekstga tushunish kerak dedik, bu tarjima jarayonidagi eng muhim masalalardan biridir, ularning to'g'ri tarjimasini boshqa tilning madaniy xususiyatlarini ham hisobga olishni talab etadi. Shu sababdan tarjima jarayonida qiyinchiliklarga duch kelinishi mumkin masalan, "osh" so'zini "soup" deb tarjima qilish etarli emas, chunki u o'zbek madaniyatida maxsus o'rin tutadi. Shu va shunga o'xshash ko'plab realia so'zlarini boshqa tillarga tarjima qilganimizda ba'zan boshqa tillarda o'sha realianing aniq ekvivalenti bo'lmasligi mumkin.

Bunday hollarda, tarjimon izohli tarjima, tushuntirma tarjima yoki kultural ekvivalent tarjima usullarini qo'llashi mumkin ya'ni tarjimon etarli darajada aniq so'zlardan foydalanishi va mano o'zgarib ketishiga yoki no'to'g'ri tushuncha paydo bo'lmasligini oldini olishi kerak. Qolaversa O'zbek realia so'zlari ko'pincha she'riy yoki idiomatic ma'nolarga ega bo'lib, ularni tarjima qilishda ma'no va uslubni saqlash qiyin bo'lishi mumkin.

**Kalit so'zlar:** Realia, Tarjima, o'zbek madaniy kontekst, Idiomatic ma'no, Ekvivalentlik, Qiyinchilik, Muammo, Tushunmovchilik, Ma'no o'zgarishi

ANALYSIS OF REALITIES TAKEN FROM THE NOVEL OF THE  
PAST DAYS BY ABDULLA QODIRIY

**Annotation:** This article examines the important issues in translating Uzbek realia words clearly and comprehensibly, as well as the problems encountered in realia translation, including the importance of understanding the cultural context, the choice of different translation methods, and the idiomatic meaning of realia words. discusses the conservation of 'no.

Uzbek realia words should be understood in their own cultural context, this is one of the most important issues in the translation process, their correct translation requires taking into account the cultural characteristics of another language. For this reason, there may be difficulties in the translation process, for example, it is not enough to translate the word "osh" as "soup", because it has a special place in Uzbek culture. When we translate these and many similar realia words into other languages, sometimes there may not be an exact equivalent of that realia in other languages.

In such cases, the translator may use interpretive translation, explanatory translation, or culturally equivalent translation methods, which cause the meaning to change or create a misunderstanding. In addition, Uzbek realia words often have poetic or idiomatic meanings, and it can be difficult to preserve the meaning and style when translating them.

**Keywords:** Realia, Translation, Uzbek Cultural Context, Idiomatic Meaning, Equivalence, Difficulty, Problem, Misunderstanding, Meaning Change

Tarjimada Realiya (ko'plik ism) madaniyatga xos moddiy elementlar uchun so'zlar va iboralardir. Realiya so'zi o'rta asr lotin tilidan olingan bo'lib, u dastlab "haqiqiy narsalarni", ya'ni mavhum narsalardan farqli ravishda moddiy narsalarni anglatadi. Realiyani chuqur o'rganishni birinchi bo'lib Bolgariyalik tarjimonlar Vlahov va Florin amalga oshirgan ular bu so'zning hozirgi zamonaviy ma'nosini yaratishdi. Ular shuni bildiradiki, realiya juda mahalliy manoga ega bo'lganligi va milliylikni o'zida mujassam etgani sababi, ko'pincha tarjima jarayonida qiyinchilik tug'diradi. Realiyani terminologiya bilan aralashtirib yubormaslik kerak.

Til organish jarayonida realiyani organish va tahlil qilish alohida amaliy ahamiyatga ega. Zero, ma'lum bir til o'rganiladigan mamlakatda uning madaniyatini o'rganish, xalq hayotiga chuqurroq kirib borish til o'rganish jarayonining sifatini ta'minlaydi. Tilning lug'at tarkibi, uning frazeologik qatlami, lisoniy va madaniy birliklarining ma'nosini yoritishda muhim birlik bo'lgan voqeliklardir. Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, voqelik atamasini asl ma'nosida qo'llaymiz va uning bir qancha semantik belgilarini ajratib ko'ramiz:

- 1) Uning xalq ijodi mahsuli ekanligi;
- 2) Malum bir xalq hayotiga (Madaniyati, turmush tarzi va tarixiy taraqqiyotiga) tegishli;
- 3) Boshqa madaniyat vakillari uchun notanish deb hisoblangan narsalarni ifodalaydi;
- 4) Milliy va tarixiy ko'rinishga ega bo'lishi;
- 5) Boshqa tillarda aniq ekvivalentiga ega bo'lmaslik. Shundan kelib chiqib, voqeliklar muayyan xalqning milliy, madaniy, ijtimoiy hayoti, turmush tarzi, boy urf-odat va an'analarni yorqin aks ettiruvchi va bunday xususiyatlarga ega bo'lgan boshqa xalqlar milliy madaniyatida takrorlanib bo'lmaydigan noyob birliklar deyiladi.

Realiyani tarjima qilish jarayonida quyidagi usullardan foydalanishadi:

**1. Tasviriy tarjima.** Ya'ni, tarjima qilmoqchi bo'lgan tilda o'xshashi bo'lmagan realiya uning tavsifi bilan almashtiriladi yoki qisqacha yoziladi yoki tarjimon lug'atdan to'liq tarifni keltirishi mumkin faqat izohda.

**2. Transkripsiya, transliteratsiya.** So'z o'zgarishsiz qoladi, u faqat transkripsiya qilinadi/transliteratsiya qilinadi. To'g'ri nomlar, geografik nomlar, bayramlar va urf-odatlar nomlarini tarjima qilishda keng tarqalgan usul.

**3. Kalkalash.** Bu so'zma-so'z yoki morfemik tarjima, ya'ni tarjima qilinayotgan so'z/ibora qismlarga bo'linadi va alohida ishlaydi. Bundan tashqari, bir qismni tavsif orqali tarjima qilish mumkin, ikkinchisini transliteratsiya qilish mumkin.

**4. Neoplazma.** Ushbu uslub ko'pincha filmlar, kitoblar va boshqalarni tarjima qilishda qo'llaniladi.

5. **Analog (taxminiy) tarjima.** Realiyani etkazish uchun ishlatiladi o'sha so'z bilan faqat qisman mos keladi ammo bu o'sha realiyani g'oyasini tushunish uchun etarli darajadagi so'z bo'lishi kerak.

6. **Sinonimik/takroriy tarjima.** Tilda bir nechta teng tarixiy shakllangan sinonimlar bo'lsa ulardan foydalanish

Quyida **Abdulla Qodiriyning O'TKAN KUNLAR** romanidan O'zbek tiliga doir realiyalarni tahlilini namuna sifatida ko'rsak bo'ladi.

1. **"Hujra"**<sup>1</sup>: kishi yashaydigan kichkina xona, uycha - (1 bet)

2. **"Qumg'on"**<sup>2</sup>: choy ichiladigan idish ichki qismi qalay bilan oqartirilib misdan yasaladi dastali, qopqoqli, qopqoqsiz jo'mrakli idish. Suv ichish, choy qaynatish uchun ishlatiladi - (3 bet)

3. **"Chopon"**<sup>3</sup>: Ichiga paxta solib qavilgan kiyim ustidan kiyiladigan uzun milliy kiyim; to'n - (8 bet)

4. **"Tokcha"**<sup>4</sup>: mahalliy uylarda idish-tovoq, boshqa narsa anjomlar qo'yish uchun devorda kvadrat yo boshqacha ishlangan maxsus joy - (10 bet)

5. **"Piyola"**<sup>5</sup>: pastidan tepasiga tomon kengayib boradigan, kosadan biroz kichik, taglikli idish (asosan choy ichish uchun ishlatiladi) - (11 bet)

6. **"Mahram"**<sup>6</sup>: Shariatga ko'ra, ayolning yuzini ochiq holda ko'rishlari mumkin bo'lgan, lekin nikoh ravo bo'lmagan yaqin erkak qarindosh (ayolning otasi, o'g'illari, aka-uka, amaki, buva, tog'a, qaynotasi) zid - (12 bet)

7. **"Nos"**<sup>7</sup>: tamakidan tayyorlanadigan va til tagiga tashlab yoki burunga iskab chekiladigan narsa - (20 bet)

8. **"Sovchilik"**<sup>8</sup>: Qizni ko'rish va qiz tomonning roziligini so'rash uchun birovning xonadoniga borish; sovchi bo'lish - (21 bet)

9. **"Ro'mol"**<sup>9</sup>: Ayollar boshiga o'raydi, to'rtburchak shakldagi mato - (28 bet)

10. **"Paranji"**<sup>10</sup>: Ko'pchilik musulmon ayollar begona erkaklarga ochiq ko'rinmaslik uchun boshiga yopinib yuradigan, uzun bichimi keng va uzun to'n shaklidagi, soxta yengli yoping'ich (yuz chachvon bilan berkitiladi) - (28 bet)

11. **"Chimildiq"**<sup>11</sup>: Go'shanga - (28 bet)

12. **"Nisholda"**<sup>12</sup>: Tuxumni oqini yetmak bilan ko'pirtirib va shakar qo'shib tayyorlanadigan quyuq ko'piksimon oq shirinlik - (26 bet)

13. **"Aza"**<sup>13</sup>: Ayollarning mayyit chiqqan uyda yig'i bilan o'tkazadigan motam marosimi - (28 bet)

<sup>1</sup> Abdulla Qodiriy. O'tkan Kunlar. www.ziyo.uz. 2018. 1-bet.

<sup>2</sup> O'sha manba. 3-bet

<sup>3</sup> O'sha manba. 8-bet

<sup>4</sup> O'sha manba. 10-bet

<sup>5</sup> O'sha manba. 11-bet

<sup>6</sup> O'sha manba. 12-bet

<sup>7</sup> O'sha manba. 20-bet

<sup>8</sup> O'sha manba. 21-bet

<sup>9</sup> O'sha manba. 28-bet

<sup>10</sup> O'sha manba. 28-bet

<sup>11</sup> O'sha manba. 28-bet

<sup>12</sup> O'sha manba. 26-bet

<sup>13</sup> O'sha manba. 28-bet

14. "Ayvon"<sup>14</sup>: Ko‘pincha uch tomoni berk, oldi ochiq xona asosan uyning eshikdan kirish qismida qilinadi - (28 bet)
15. "Choshgoh"<sup>15</sup>: Kun ancha ko‘tarilib qolgan vaqt - (144 bet)
16. "Mone"<sup>16</sup>: Biror bir xolat yoki narsaga to‘sqinlik, qarshilik qiluvchi, man etuvchi narsa - (145 bet)
17. "Ma'sud"<sup>17</sup>: Baxtli, saodatli - (147 bet)
18. "Qo'rboshi"<sup>18</sup>: Shaharni tunda qo‘riqlaydigan mirshab, qurol-aslaha ombori mutasaddisi, kurol-aslaha, turli yarog‘lar va to‘p yasash ustaxonalari raxbari - (147 bet)
19. "Qutidor"<sup>19</sup>: Quti-quti boyligi ko‘p yoki pul-dunyosi bo‘lgan yirik boy odam; sarmoyador - (149 bet)
20. "Qushbegi"<sup>20</sup>: Amir va xonlar saroyida bosh vazir yoki huquqi vazirga teng bo‘lgan yirik amaldor; hokim - (159 bet)

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. *Barxudarov L.S.* Til va tarjima. M.: Xalqaro. munosabatlar, 1975.
2. *Vaisburd M. L.* Voqealar mintaqaviy tadqiqotlar elementi sifatida // Chet elda rus tili. 1972.No3.S. 98-100.
3. *Fedorov A.V.* Tarjimaning umumiy nazariyasi asoslari. M.: Yuqori. maktab, 1983.
4. *Shvaytser A.D.* Tarjima nazariyasi, holati, muammolari, jihatlari. M.: Nauka, 1988. 1973.
5. *Vlaxov, Sergey va Florin, Sider* (1980) *Neperevodimoe v perevode*, Moskva: Mezhdunarodnye otnosheniia.
6. *Abdulla Qodiriy.* O'tgan kunlar. [www.ziyo.uz](http://www.ziyo.uz). 2018.
7. [Izoh.uz](http://Izoh.uz)

---

<sup>14</sup> O'sha manba. 28-bet

<sup>15</sup> O'sha manba. 144-bet

<sup>16</sup> O'sha manba. 145-bet

<sup>17</sup> O'sha manba. 147-bet

<sup>18</sup> O'sha manba. 147-bet

<sup>19</sup> O'sha manba. 149-bet

<sup>20</sup> O'sha manba. 159-bet